

# 4-mavzu: Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi

## Reja:

1. Mustaqillik yillari Qoraqalpog‘iston Respublikasining iqtisodiy yangilanishi.
2. Qoraqalpog‘iston Respublikasida qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘zgarishlar.
3. Ma’naviy-madaniy sohadagi o‘zgarishlar.
4. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik ahvolni yaxshilash borasida davlat siyosati.



# QORAQOLPOG'ISTON RESPUBLIKASI



Maydoni 166,6 ming km.kv. Aholisi 1 mln. 869 ming 800 kishidan ortiq. (01.01.2019-yil holati). Qoraqalpog'iston Respublikasida 15 ta tuman, 12 ta shahar va 26 ta shaharcha mavjud.

Qoraqalpog'iston Respublikasi mamlakatimizning shimoli g'arbida joylashgan. Temiryo'l, avtomobil va havo transportining yo'lga qo'yilishi, respublika ishlab chiqaruvchi kuchlarining uzluksiz yuksalishiga zamin hozirladi. Qoraqalpog'iston muxtor viloyat sifatida 1925-yilda tashkil topgan, 1932-yilda muxtor respublikaga aylantirilgan, 1936-yilda O'zbekiston tarkibiga kirgan. Qoraqalpog'istonning O'zbekiston tarkibiga kirishi qoraqalpoq va o'zbek xalqlari o'rtasidagi qadimiy do'stlikni, hudud, til va madaniyatdagi mushtaraklikni yanada mustahkamladi.

# DAVLAT RAMZLARI



# Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining ahamiyati quyidagilarda o'z aksini topgan:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kirishi hamda ular o'rtasidagi o'zaro do'stona munosabatlarning huquqiy asosi;


- Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z davlat ramzlariga ega ekanligini belgilaydi;

- suveren hamda mustaqil davlat ekanligining kafili;

- davlat va ma'muriy hududiy tuzilish masalalarini mustaqil hal qilishi;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasida, Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lishligi, uning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo'lmasligi ko'rsatilgan.

**Parlament-** Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hisoblanadi. 86 deputatdan iborat. Uning raisi, bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Senati raisining birinchi o'rinbosari hisoblanadi.



# Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyoti 1991-2000-yillarda

Qoraqalpog'iston  
51 ta mayda ulgurji  
tizim



4 ta savdo uyi



35 ta mayda  
ulgurji savdo  
do'konlari va  
omborlar




32 ta ko'tara  
savdo bazasi



O'zbekiston tovar xom ashyo birjasining  
Qoraqalpog'iston bo'limi, 19 ta supermarket do'konlari  
faolivati vo'lga qo'yildi

1999-yilning 1-yanvarigacha bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda xususiylashtirishdan tushgan mablag'larning umumiy xajmi 650 million so'mni tashkil etdi. Uning 20% respublika ijtimoiy taraqqiyotiga ajratildi. 50% esa tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratishga sarflandi.

# Yirik sanoat korxonalari



# Ustyurt gaz-kimyoy kombinati.

## 2012 – yil

2014-yili nufuzli “Infrastructure Journal” xalqaro nashri mazkur loyiha qurilishini “2014-yilning neft-gaz sohasidagi eng yirik bitimi”, deb e’lon qildi.

Umumiy qiymati 4 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bu mashhur loyiha amalga oshirilishi mamlakatimiz sanoati rivojini yangi bosqichga ko’tarishi shubhasiz.


Hozir bu yerda yiliga 4,5 milliard kub metr gaz qayta ishlanmoqda. Buning samarasida xalqimiz ehtiyoji va eksport uchun 3,7 milliard kub metr gaz,

387 ming tonna polietilen, 83 ming tonna polipropilen, 102 ming tonna piroliz distillyati va boshqa qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.



# Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdodagi asosiy sheriklari

Ekspord qilingan tovarlar hajmi



1996-yilda 122,9 mln dollarga teng bo'ldi. G'arb mamlakatlariga eksport qilingan xom ashyo 113,6 mln dollarni tashkil etdi. Paxta tolasi jami eksport mahsulotlarining 95% ni tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasida importning salmog'i

1996-yilda 16,2%

## Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyat

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning tashabbusi bilan 1994-yili 14-yanvarda Nukusda Markaziy Osiyoning beshta davlat Prezidentlari hamda Rossiya Federatsiyasining vakillari ishtirokida o'tkazilgan uchrashuvda Orolga va Orolbo'yi aholisiga amaliy yordam berish masalasi muhokama etildi.

1995-yili xalqaro konferensiyada "Nukus Deklaratsiyasi" qabul qilinib, unda butun dunyo jamoatchiligi e'tibori Orol muammosiga qaratildi. Deklaratsiyada ovul va o'rmon xo'jaliklarin ilmiy tizimga o'tkazish, suv resurslarin foydalanishning iqtisodiy usullari va texnologiyasi ishlab chiqish, hududning tabiiy resurslarini boshqarish tartibini yengillashtirish, ushbu hududda yashovchi odamlarning turmush darajasini yaxshilash masalalari kun tartibiga qo'yildi.

# Madaniy sohadagi o'zgarishlar

Nukus shahrining 60 va 70 yilligi

To'rtko'l shahrining 120 yilligi

Nukus pedagogika institutining 60 va 70 yilligi

Qoraqalpoq Davlat universitetining 25 yilligi

Ajiniyoz Kasiboy o'g'li va Berdaq Qarg'aboy o'g'lining 170 yilligi

Allayor Do'stnazarovning 100 yilligi

Ernazar Alakozning 200 yilligi

I.Yusupov va T.Kaipbergenovlarning 70 yilligi

kabi yubileylar keng ko'lamda nishonlandi.

## FOYDANILDAN ADABIYOTLAR:

- **1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T:”O‘zbekiston”, 2017 y.**
- **2.Karimov I.A.O‘zbekiston:milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.-T:1-tom,”O‘zbekiston”, 1996 y.**
- **3.Levitin L.O‘zbekiston tub burilish pallasida.-T:O‘zbekiston,2005 y.**
- **4.Erkaev A. O‘zbekiston yo‘li.-T: “Ma’naviyat”, 2011 y.**
- **5.Mustaqillik:ilmiy-ommabop lug‘at.-T:SHarq, 2006 y.**
- **6.Mustaqil O‘zbekiston tarixi.-T: Akadmiya, 2013 y.**